



## SHEVAGA XOS SO'ZLARNING O'ZBEK TILI RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATLI JIHATLARI

Zaripova Muxlisa Xamid qizi<sup>1</sup>

Ajiniyaz nomidagi Nukus davlat pedogogika instituti, Turkiy tillar fakulteti, O'zbek tili va adabiyoti 1-bosqich talabalari

Mavlonberdiyeva Nafisa Ozod qizi<sup>2</sup>

Ajiniyaz nomidagi Nukus davlat pedogogika instituti, Turkiy tillar fakulteti, O'zbek tili va adabiyoti 1-bosqich talabalari

<https://www.doi.org/10.37547/ejsspc-v03-i02-p1-32>

### ARTICLE INFO

Received: 05<sup>th</sup> February 2023

Accepted: 15<sup>th</sup> February 2023

Online: 16<sup>th</sup> February 2023

### KEY WORDS

*Dialektologiya, lahja, dialekt, O'zbek dialektologiyasi, transkripsiya, sheva, adabiy til.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada O'zbek tili shevalari va ularning bugungi kundagi ahamiyatli jihatlari, har bir shevaning o'ziga xosligi, ularning o'zaro munosabati haqida ma'lumotlar yoritib berildi.*

Qadim tarixga ega bo'lgan turkiy tillar zamon o'tishi bilan rivojlanib borgan. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan ayni zamonda hamma narsa yangilanib, takomillashib bormoqda. O'zbek tili bugungi ko'rinishiga kelinishiga kelgunga qadar bir necha taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tgan. **Abdulla Avloniy** ta'biri bilan aytganda: „Har bir millatning dunyoda borligini ko'rsatadurgan oyinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdir“. Milliy tilning rivojlanishidagi ahamiyati esa, jamiyat hayotidagi o'rni bilan belgilanadi. Ma'lumki, til ijtimoiy hodisa sifatida aloqa vositasi hisoblanadi. Dialektologiya yunon tilidan olingan bo'lib, shevalar, dialektlar va lahjalar defan ma'noni bildiradi. Shevalar har bir milliy tilning asosini tashkil etadi hamda u milliy -ma'naviy qadriyatimiz hisoblanadi. Aslida ham ona tili deganda she'va tushunilishi haqiqatga yaqindir. Shuning uchun ham uni asrab -avaylash zarur. Bu haqida birinchi prezidentimiz **Islom Abdug'aniyevich Karimovning**: „Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili -bu millatning ruhidir.<sup>11</sup> O'zbek tili boshqa turkiy tillardan ko'p she'valiligi bilan farqlanadi. O'tgan tarixiy davr ichida o'zbek shevalari to'xtovsiz taraqqiy etdi. Uning taraqqiyot davrini tushunish va izohlashda sheva, dialekt va lahja terminlar qo'llanadiki, ularning lug'aviy va terminalogik ma'nolarini albatta bilish zarur.

O'zbek shevashunosligida mavjud bo'lgan ilmiy adabiyotlarda, sheva, lahja, dialekt atamalari turlicha ma'nolarda qo'llanib kelinmoqda. Bu atamalarning ma'nosi ham har xil emas. Chunki o'zaro ba'zi farqlarga eg bo'lgan shevalar birlashib, lahjani tashkil qiladi. Ikki yoki bir necha lahcha birgalikda milliy til asosiga aylanadi. Shunday qilib, shevalar bir-biriga juda yaqin va o'xshash bo'lganliklari holda tilimizning eng kichik bo'lagini tashkil qiladi. Dialekt atamasi tor va keng ma'noda qo'llanadi. Bu jihatdan „lahja“ atamasi „dialekt“ atamasiga teng keladi.

<sup>1</sup> I. Karimov. «Vatan va xalq mangu qoladi». Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti; 2010; 123-b



**Sheva.** U forscha soʻz boʻlib, ovoz, til, soʻzlashish, yoʻsin, ravish kabi maʼnolarni bildiradi. Shevalar oʻzbek tilining oʻziga xos fonetik, grammatik va leksik xususiyatlarga ega boʻlgan kichik bir qismi boʻlib, ularning jugʻrofiy oʻrinlari bilan bir-birlaridan ajralib turadi. Masalan, oʻzbek tilining qarluq-chigil uygʻur guruhiga kiruvchi Toshkent, Andijon, Margʻilon, Samarqand, Buxoro, kattaqoʻrgʻon, Jizzax, Qarnob, Qarshi, Parkent, Urgut singari kichik tarmoqlari shevalarni tashkil etadi. Yoki qipchoq guruhini tashkil etuvchi mangʻit, yuz, saroy, nayman, qipchoq, qoraqalpoq, xitoy, jaloyir, chigʻatoy kabilar ham oʻzbek tilining eng kichik boʻlaklaridandir. Shevalar oʻzaro birikib, lahjani yuzga keltiradi. Lahja va shevalar oʻzaro birikib, oʻzbek milliy tili tarkibida oʻrganiladi. Chunki oʻzbek milliy tilining qoʻllanilish doirasi kengdir. Lahja va shevalar oʻzbek adabiy tili tushunchasiga kirmaydi. Biroq, ular oʻzbek tilining quyi shakli tarmoqlari hisoblanib, oʻzbek adabiy tilini boyitish uchun xizmat qiladi. Bu ayniqsa, leksika bobida yaqqol koʻzga tashlanib turadi. Chunonchi, hozirgi paytda adabiy tilimizda ham „beda“ kabi nomlar bilan yuritiladigan toʻyimli ozuqa qipchoq lahjasini tashkil etuvchi lahjalarda „yoʻngʻichqa“, soʻzini adabiy til meʼyoriga kiritish foidadan holi boʻlmaydi. Yana „boʻla“, „qilamiq“, „boʻtana“, „oʻngʻir“, singari soʻzlarni ham adabiy til doirasida keng isteʼmol qilishni oʻylab koʻrish foydali boʻlishi mumkin. Adabiy til meʼyorlarining tobora takomillashib borishi ilm-fan va madaniyat taraqqiyoti, sanʼat rivoji, aqliy mehnat bilan jismoniy mehnatning tenglashib borishi kabi ijtimoiy hodisalar bilan uzviy bogʻliq holda shevalar ham asta-sekin adabiy tilga yaqinlashib boradi. Ammo bu jarayon uzoq muddatni oʻz ichiga oladi.

**“Lahja** arabcha soʻz boʻlib u ham ravish, tarz, yoʻsin, sheʼva maʼnolarini bildiradi. Dialektologik termin sifatida qadimdan oʻzbek tilining taraqqiyotiga asos boʻlgan sheva va dialektlarning eng yirik toʻdasini anglatadi. Oʻzbek tili oʻz tarixiy taraqqiyotida 3ta lahjaning birligidan tarkib topgan. Ular qarluq-chigil-uygʻur lahjasi, qipchoq lahjasi, oʻgʻuz lahjasidir. Demak, lahjalar milliy tilning quyi bosqichi boʻlib, uning yirik tarkibiy qismlarini tashkil etadi. Lahjalar oʻzining grammatik maʼnolarini oʻzida mujassamlashtiradi. Oʻzbek shevashunosligida lahjalar oʻzining grammatik qurilishi bilan ijtimoiy jargonlardan tubdan farq qiladi. Lahjalar oʻrtasidagi farqli tomonlar fonetika, grammatika va lugʻat tarkibi doirasida hozirgi vaqtda ham yaqqol koʻzga tashlanib turadi. Lekin bu farqlar keskin boʻlmaydi. Lahja atamasining baʼzan tor maʼnoda, yaʼni sheva maʼnosida qoʻllanilishi uchraydi. Masalan, Vodil qishloq lahjasi haqida bir necha soʻz; har kim oʻz lahjasida gapiradi kabi. Bu atama 1930 va 1940 yillargacha yozilgan filologik adabiyotlarda har ikkala maʼnoda ham qoʻllanilgan boʻlib, keyingi yillarda yozilgan shevashunoslik va tarixiy asarlarda ishlatilmaganligi yoki kam darajada qoʻllanilganligi maʼlum. Lekin keyingi vaqtlarda xususan „Devonu lugʻotit turk“ asarining tarjimasiga (tarjimon prof. Solih Mutallibov), prof. V.V. Reshetovning oʻzbek xalq shevalarining kelib chiqish jihatidan asoslab bergan tasniflarda „lahja“ soʻzining yana faollashib dialekt maʼnosida, yaʼni u bilan shakldosh soʻz sifatida qoʻllanila boshlanganligini koʻramiz.”<sup>2</sup>

Lahja atamasi oʻzbek, turk tillarida isteʼmolda bor, boshqa aksariyat millatlar dialektologiyasida dialekt va sheva (rop) terminlariga koʻproq ahamiyat beriladi.

<sup>2</sup> Nazar Rajabov. “Oʻzbek shevashunosligi”; Toshkent: “Oʻqituvchi” nashriyoti 1996;



**Dialekt.** Dialekt lotincha soʻz boʻlib, shevaga nisbatan keng maʼnoda qoʻllaniladi. Adabiy tildan oʻzining bazi bir xususiyatlari (fonetik, grammatik, leksik) bilan farqlanadigan biror umummilliy tilning yirikroq boʻlagi dialekt deb yuritiladi. Amalviy hayotda esa oʻzaro anglashish va anglashilmaslik hisobga olinadi. Masalan, oʻzbek tilining oʻgʻuz dialekti, qipchoq dialekti kabi.

Demak, dialekt tilning eng kichik boʻlagi sanalgan shevalarning bir qanchasini oʻz ichiga oladi, yaʼni u shevalar yigʻindisidan tashkil topadi. Biz yuqorida sanab oʻtgan qirq, saroy, gʻallaorol, joʻsh, nayman, qoʻngʻirot, xitoy, qipchoq, qoraqalpoq, baxmal, ming, bugut kabi shevalar birlashib oʻzbek tilining qipchoq dialektini tashkil qiladi. Lekin, baʼzan dialekt atamasi tor maʼnoda, koʻpincha sheva maʼnosida qoʻllanilishi ham ucharaydi: Toshkent dialekti, Fargʻona dialekti kabi.

Bir dialekt tarkibidagi shevalarda oʻzaro bogʻlangan, lekin kichik va muhim boʻlgan farqlar boʻladi.

Oʻzbek tilining murakkab dialektal tarkibi.

“Professor E. D. Polivsnov „ Oʻzbek dialektologiyasi va oʻzbek adabiy tili” nomli asarida (1933) oʻtgan asrning birinchi choragidayoq oʻzbek tili oʻzining koʻp shevaliligi bilan boshqa turkiy xalqlardan ajralib turishi haqida maʼlumot bergan edi. Keyingi tadqiqotlar buni tasdiqlagan. Uning tub mohiyati bir necha omillarga borib taqaladi. Professor V.V.Reshetov oʻzbek tili dealektal kartasi rang barangligini uning etnogenezisidan qidirish lozimligini uqtiradi.

**Transkripsiya.** Tarnskripsiya lotincha soʻz (transcriptio) boʻlib, qayta yozish demakdir.umuman, transkripsiya ilmiy yozuv boʻlib, bir tildagi hamma nozik tomonlarni hisobga olgan holda, ilmiy maqsadlar uchun talaffuzga koʻra yozib olish degan maʼnoni beradi.”<sup>3</sup>

Milliy tilning rivojlanishidagi ahamiyati esa, jamiyat hayotidagi oʻrni bilan belgilanadi. Shevalarning materiallaridagi fonrtik va grammatik xususiyatlar ularni bir-biridan farqlash uchun xizmat qiladi. Biz ana shu oʻziga xos tomonlar orqali shevalararo umumiy va xususiy tomonlarni belgilaymiz. Bu boyliklar xalqimizda katta xazina boʻlib, xali yetarli darajada oʻrganilmagan. Ularni oʻrganish orqali shevalararo oʻz tariximizni boyitamiz, adabiy tilimizni rivojlantiramiz, adabiyotimizni rang-barang qilishga erishamiz. Chunki tildagi xususiyat ichki taraqqiyot yoʻlining eng muhim qirralarini tashkil etadi. Shu maʼnoda oʻzbek xalq shevalarining leksik qatlami alohida ahamiyat kasb etadi. Shevalardagi leksik xususiyatlarga qarab, ulardagi soʻzlar va atamalar hisobidan adabiy tilimizning leksik boyligini oshirish uchun foydalanish birinchi darajali vazifadir. Oʻz vaqtida leksik qatlam qirralarini umumiy isteʼmolga kiritib borishda Maxmud koshgʻariy, Yusuf Xos Hojib, Lutfiy, Bobur, Alisher Navoiy, Abulgʻozi baxodirxon, Avaz Oʻtar oʻgʻli, Muqimiy, Furqat, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Qodiriy, Hamid Olimjon, Oybek, Gʻafur Gʻulom kabi ijodkorlarning juda katta xizmatlari boʻlgan.

Oʻzbek xalq shevalari leksikasi materiallarini oʻrganish va tahlil qilishda uch tomon alohida olib tekshiriladi.

<sup>3</sup> Ashirboyev Samixon; “Oʻzbek dialektologiyasi”; Oʻzbekiston Respublikasi oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi; Toshkent-2013)



1. Faqat u yoki bu o'zbek xalq shevalari uchun xos bo'lib adabiy tilda uchramaydigan so'z va atamani aniqlab chiqish va tahlil qilish, masalan qipchoq shevalarida **кыламык**-yupqa, кычап-tez, **талли**-shirinlik, **урт-оурт**-lunj, **долча-сар-химча**-krujka, **мэчкэй**-yeb to'yumas kabi. Bunga o'g'uz shevalaridan йашулли-оqsoqol, кисинма-хафа bo'lma, **эжэк**-buzoq, **лабир**-tez, so'zlaydigan kishi kabilarini keltirish mumkin. **Малах**-chigirtka, **inak**-sigir kabilar esa Samarqand-Buxoro shevalarida uchraydi.

2. Adabiy tildagi so'z va atamalarning shevalararo boshqa ma'nolarga ega bo'lishini belgilab chiqish. Masalan, chorsu-belbog', pochcha-aka, amaki (Qarnob), opa-apa-ona (qipchoq) kabi.

3. shevalardagi so'z va atamalarning adabiy til holatidan fonetik jihatdan farqlanish holatlarini isbotlab bayon etish. Masalan, oka-aka, shig'ir-she'r (Toshkent), kepqa-kelib qol, ene-ona (qipchoq), diz-tizza, loqqi-lo'ppi (o'g'uz) kabi."<sup>4</sup>

Biz yuqorida shevashunoslikda leksik boylikning muhimligi haqida to'xtalib, eng zarur vazifalarni qayd etib o'tdik. Maxalliy shevalarni atroficha va keng o'rganish orqali tadqiqotchilar oldidagi qator vazifalarni qayd etish o'rinlidir. Bu vazifalarning ayrimlari quyidagilardan iborat:

1. O'zbek milliy tilining shakllanish jarayoni va uning taraqqiyotida tutgan o'rni xamda ularning shu milliy tilga bo'lgan munosabatini aniqlash, chunki Toshkent-Farg'ona shevalari o'zbek tilining asosiga olingan degan fikr keng tarqalgan va umumiy qoida sifatida qabul qilinganiga qaramasdantilshunoslik adabiyotida o'zbek milliy tilining asosiga Toshkent-Andijon, o'rta o'zbek dealekti olingan degan fikrlar mavjud. Mavjud bo'lgan faktlar, masalan, qipchoq shevalaridagi kishilik olmoshlarining birinchi va ikkinchi shaxs birliklari men, sen shakllarida qo'llanishi, aniq hozirgi zamon fe'lining -jatir-yatir-yotir qo'shimchasi bilan hosil qilinishi, h va x fonemalarining farqlari o'zbek milliy tilining shakllanishida boshqa shevalarning ham muhim ahamiyatga ega bo'lganligini ko'rsatadi.

2. Shevalarning o'zaro munosabatini, ularning munosabatini, ularning adabiy til va qardosh (qozoq, qirg'iz, turkman) tillarga, shuningdek, uzoq yillar davomida ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda hayot kechirib kelgan qo'shni xalqlarning tillariga (masalan, tojik tiliga) bo'lgan munosabatlarni belgilash. Chunki ko'pgina umumiste'mol so'zlarimiz bir xilda qo'llanib kelmoqda. Ularning aniq tarixini belgilash uchun ko'p mehnat qilishga to'g'ri keladi. Masalan, birgina -chi qo'shimchasining tarixini ko'zdan kechirganimizda, uning tojik tilida uchrashi XV-XIV asrlar bilan bog'lanishini qayd etish o'rinlidir. Bir so'z bilan aytganda, tillar bir-birlaridan „qarz olmasdan“ yashay olmaydi.

3. O'zbek xalq shevalarini o'rganish sohasida anchagina ishlar qilingan va materiallar to'plangan bo'lsa ham ularning ba'zilari hali yetarli darajada o'rganilmagan, ayrimlari esa, hatto, tilga ham olinmagan. Ularning xarita va atlasini tuzish masalasi esa hozirgacha shevashunos olimlarning asosiy diqqat e'tiborini jalb qilmagan. Bu sohada qilingan ishlar kam va ommaviy tus olgan emas.

Xalqimiz o'zining ko'p asrlik hayoti davomida boy madaniyat va adabiyotni vujudga keltirdi. O'zbek xalqi boy an'analari asosida o'zining adabiy tilini yaratdi. Adabiy til xalq tili asosida shakllandi. O'zining fonetik tuzilishi, grammatik qurilishi, va lug'at boyligini ma'lum bir me'yorga kiritdi va qoidalarga bo'ysundirdi. Adabiy tilning ikki

<sup>4</sup> T.J. Ernazarov, V.A. Karimjonova, M.S. Ernazarova, Sh.S. Mahmadiyev, K.G'. Rixsiyeva. "O'zbek dialektologiyasi"; O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi; Toshkent-2012



asosiy shakli og'zaki adabiy til va yozma adabiy til ko'rinishi mavjud. Yozma adabiy til ham o'zining boy an'alariga ega. Lekin, og'zaki adabiy til yozma adabiy tildan ilgari paydo bo'lgan. Yozma adabiy til materiallari sifatida qo'llangan so'zlar umumxalq tili asosida adabiy tilning shakllanishiga xizmat qiladi va uzoq vaqt iste'molda bo'ladi, ularning ayrimlari vaqt o'tishi bilan tarixiy so'zlarga aylanib qolishi ham mumkin. "O'zbek adabiy tili XVII-XIX asrlarda ham boyidi va taraqqiy etdi. O'zbek adabiy tilining taraqqiyoti XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida ancha sermahsul bo'ldi. Unda taraqqiyparvar shoir va yozuvchilar Furqat, Muqimiy, zavqiy, Avaz O'tar o'g'li, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Qodiriy kabi san'atkorlarning munosib hissalarini bor. Bu davrga kelib, tilimizning grammatik qurilishi va lug'at boyligi taraqqiy etdi, bir muncha mukammal tus oldi. Lekin bu taraqqiyot bir qancha qarshiliklarga duch keldi. Ayrim tilshunoslarning o'zbek adabiy tilining taraqqiyot jarayonini noto'g'ri yo'lga solish, uni chetga burishga urinib ko'rdilar. Ular o'zbek adabiy tilini XI-XV asrlardagi yozma yodgorliklar asosida alohida adabiy tilni shakllantirish va rivojlantirish masalasini ko'tarib chiqdilar. Bunday ruhdagi kishilarning harakatlari 1935-1937- yillargacha davom etib turdi."<sup>5</sup>

Hozirgi o'zbek adabiy tilida ko'pgina so'zlarning ma'nosi o'zgardi va kengroq doirani qamrab oladigan bo'ldi (vatan, bog'cha, xalq, mulk singari), ma'nolari farqlanadi (yonilg'i-yonadigan suyuqlik modda, yoqilg'i- o'tin, ko'mir kabi), ma'nodosh, shakldosh, so'zlarning qo'llanilish doirasi kengaydi. Hozirgi vaqtda o'zbek tilida turli sohalarni qamrab oluvchi juda ko'plab ilmiy-nazariy adabiyotlar, badiiy asarlar, gazeta va jurnallar nashr etilmoqda. Adabiy tilning taraqqiyoti, silliqanib borishi va uning shevalar hisobidan boyishida hamda adabiy til me'yorlariga yaqinlashib borishida olimlar va madaniyat xodimlari, yozuvchi va shoirlarning munosib hissalarini bor. Bu sohada xalq og'zaki ijodiyoti hamma vaqt katta ahamiyatga ega bo'lib kelgan va hozir ham shunday bo'layotir. Chunki adabiy tilni boyitish „xom“ so'zlarni qayta ishlash, qolipga tushirish va umumiy darajasiga olib kirishda adiblarimizning xizmatlari cheklanmagan. Aslini olganda, har bir haqiqiy adibning o'zi to'la ma'nodagi tadqiqotchidir.

O'zbek adabiy tilining hozirgi davri taraqqiyotida va mukammallashishida matbuot, nashriyot, maktab, radio, teleko'rsatuv, teatr kabilarining ahamiyati kattadir. Bu sohada shoir-yozuvchilar, madaniyat va san'at arboblari, olimlarning alohida ahamiyati borligini yana bir bor qayd etish joizdir. O'zbek adabiy tili o'zining dastlabki davridan boshlab, o'z taraqqiyotining hamma bosqichlarida lahja va shevalar bilan o'zaro aloqada bo'lib kelgan. Bunda adabiy til bir tomondan, shevalarga faol ta'sir ko'satadi, ikkinchi tomondan, ular hisobidan boyib boradi. Bu jarayon hozir ham davom etmoqda. Chunki mahalliy lahjalar eng qadimgi davrlarda o'sha davrga nisbatan mustaqil til vazifasini bajargan va xalqning ma'lum bir qismi uchun asosiy aloqa vositasi va kurash quroli hisoblangan. Aslini olganda, u vaqtlarda xalq tili ham, adabiy til ham mavjud emas edi. Xalq tili va

<sup>5</sup> T.J. Ernazarov, V.A. Karimjonova, M.S. Ernazarova, Sh.S. Mahmadiyev, K.G'. Rixsiyeva. "O'zbek dialektologiyasi"; O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi; Toshkent-2012



adabiy til ana shu mahalliy lahjalar negizida vujudga keldi rivojlandi. Shuning uchun ham, adabiy til va shevalar bir-birlari bilan uzviy bog'liqdir.

Adabiy tilning qo'llanilishi milliy tilga nisbatan birmuncha cheklangan bo'ladi. Shunga ko'ra, u lahja va shevalar bilan mustahkam aloqada bo'lsa ham, ularni o'z ichiga qamrab ololmaydi. Bu esa milliy tilga xos xususiyatdir. Chunki milliy til tushunchasi o'zining hajmi va qo'llanilish doirasi doirasi jihatidan o'zbek adabiy tili va o'zbek xalq tilining pishiq va mukammal, ishlangan shakli hisoblanadi. U butun xalqning aloqa vositasi bo'lib xizmat qiladi.

### References:

1. I.Karimov. «Vatan va xalq mangu qoladi». Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti; 2010; 123-b.
2. Nazar Rajabov. "O'zbek shevashunosligi"; Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti 1996;
3. Ashirboyev Samixon; "O'zbek dialektologiyasi"; O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi; Toshkent-2013)
4. T.J. Ernazarov, V.A.Karimjonova, M.S.Ernazarova, Sh.S.Mahmadiyev, K.G'.Rixsiyeva. "O'zbek dialektologiyasi"; O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi; Toshkent-2012